

II. SANOAT VA ENERGETIKA

2025- yil yanvar-mart oylarida sanoat mahsuloti hajmi 30 596,1 mlrd so‘mni yoki o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 104,3 % ni tashkil etdi.


2025- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish

	mlrd so‘m	O‘sish sur‘atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	30 596,1*	104,3
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	1 488,3	120,3
<i>shundan:</i>		
Ko‘mir va lignit, xom neft va tabiiy gaz qazib olish	350,9	126,0
Metall rudalarini qazib olish	763,6	92,4
Boshqa turdagi tog‘-kon sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish	373,1	2,2 m.
Tog‘-kon sanoati bo‘yicha xizmatlar	0,7	6,0
Qayta ishlash sanoati	25 178,1	104,2
<i>shundan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	4 281,2	113,2
To‘qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlarni ishlab chiqarish	2 781,9	108,5

davomi

	<i>mlrd so‘m</i>	<i>O‘shish sur‘atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
Yog‘och va po‘kak buyumlar, poxol va to‘qish uchun materiallardan buyumlar, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari, mebellari shlab chiqarish	772,6	107,1
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	53,2	60,8
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish	421,5	77,5
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlari shlab chiqarish	1 881,4	127,7
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish	84,1	132,7
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	1 264,4	164,5
Metallurgiya sanoati	11 349,9	88,2
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish hamda mashina va uskunalarni ta‘mirlash va o‘rnatish, tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	2 287,9	137,1
Elektr, gaz, bug‘ bilanta‘minlash vahavonikonditsiyalash	3 821,5	93,0
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	108,2	160,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 25 178,1 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 82,3 % ni tashkil etdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)

	O'lchov birligi	2025- yil yanvar-mart	O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash			
Chaqiq tosh	t	70 609,1	71,7
Kaolin	t	118 470,7	5,6 m.


	O'lchov birligi	2025- yil yanvar-mart	O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
Qayta ishlash sanoati			
Yangi so'yilgan yoki sovutilgan go'sht	<i>t</i>	13,5	135,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni	<i>t</i>	48 112,4	89,5
O'simlik yog'i (tozalangan)	<i>t</i>	12 494,6	160,5
Paxta tolasi	<i>t</i>	7 731,0	62,7
Paxta chigiti	<i>t</i>	12 026,0	62,5
Paxta linti	<i>t</i>	479,0	56,0
Aroq	<i>ming l</i>	1 868,3	142,3
Uzum vinosini distillash yoki uzumni siqish natijasida olingan spirt nastoykalari	<i>ming l</i>	11,0	37,8
Trikotaj yoki to'qilgan kiyimlar	<i>ming dona</i>	977,8	82,2
Karbamid	<i>ming azot tonna</i>	13,5	187,3
Ammoniy sulfat	<i>ming azot tonna</i>	2,5	160,9
Ammoniy nitrat (ammoniyli selitra)	<i>ming azot tonna</i>	7,8	50,5
Tarkibida ikkita ta'minlovchi element – azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar	<i>ming tonna</i>	46,2	102,2
Suvsiz ammiak	<i>ming tonna</i>	37,9	88,1
Sulfat kislota	<i>ming tonna</i>	187,6	98,4

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2025- yil yanvar-mart</i>	<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
Denaturlanmagan, spirt konsentratsiyasi 80 % hajmdan kam bo'lmagan etil spirti	<i>ming l</i>	3 224,1	88,3
Portland sement	<i>ming t</i>	993 285,9	171,0
Sement klinkerlari	<i>ming t</i>	352898,5	159,0
Binolar va inshootlar uchun sement, beton yoki sun'iy toshdan yig'ma konstruksiyalar elementlari va boshqa buyumlar	<i>t</i>	55 612,0	110,3
Temirdan yoki legirlanmagan po'latdan bolg'alangan, issiqlayin prokatka qilingan, issiqlayin cho'zilgan yoki ekstrudirlangan	<i>t</i>	83 012,9	47,8
Yurg'izuvchi g'ildiraklar, ularning qismlari va jihozlari	<i>t</i>	207,6	60,1
Elektro energiya	<i>mln. kVt/s</i>	5 069,1	97,4
Issiqlik energiyasi	<i>ming Gkal</i>	1 015,7	93,1


2025- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga
sanoat ishlab chiqarishning o'sish sur'ati
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)



Toshkent viloyatida yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi 9 822,1 ming so'mni tashkil qildi va viloyatda yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Olmaliq (65 093,9 ming so'm), Ohangaron (29 124,9 ming so'm) va Chirchiq (15 246,0 ming so'm) shaharlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (5 423,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.




2025- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha
kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da




Toshkent viloyatida 2025- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4,6 trln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 23,5 % ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 22,0 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush Oqqo'rg'on (98,6 %), Zangiota (91,0 %) (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi) va Parkent (82,5 %) tumanlarida hamda eng kichik ulush Olmaliq (1,7%) shahrida kuzatildi.




Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining
sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi, % da

2025- yil yanvar-mart



2024- yil yanvar-mart




Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 5378,2 mlrd soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi. Jumladan, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 17,6 % ni (2024- yil yanvar-mart oylarida – 18,0 %) tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

	2025- yil yanvar-mart mlrd so'm	O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi, % da
Viloyat bo'yicha	30 596,1 *	104,3
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	778,4	98,9
Olmaliq	9 711,0	100,8
Angren	1 840,2	112,8
Bekobod	1 643,2	74,0
Ohangaron	1 228,1	107,2
Chirchiq	2 680,6	107,1
Yangiyo'l	219,3	99,1
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	332,2	107,5
Ohangapon	2 313,0	102,0
Bekobod	109,4	96,3
Bo'stonliq	620,2	102,3
Bo'ka	103,4	112,3
Quyichirchiq	293,8	105,8
Zangiota	974,0	113,1
Yuqorichirchiq	742,0	112,7
Qibray	2 787,0	101,4
Parkent	240,5	114,1
Piskent	243,3	107,6
O'rta Chirchiq	347,6	98,7
Chinoz	252,4	110,2
Yangiyo'l	609,9	109,4
Toshkent	799,6	109,8

*) Yashirin iqtisodiyot qo'shilgan holda

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmida hududlarning ulushi
(jamiga nisbatan % hisobida)



Viloyat bo'yicha ushbu korxonalarining ishlab chiqarish hajmi eng ko'proq Olmaliq (salmog'i 31,7 %), Angren (6,0 %), Chirchiq (8,8 %) shaharlari, Qibray (9,1 %) va Ohangaron (7,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi eng yuqori ko'rsatkichi Angren (112,8 %) shahar, Parkent (114,1 %) tumanida aks etdi.

**2025- yil yanvar-mart oylarida
mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi**


Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi, viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi.

Mazkur dastur doirasida 2025- yilning yanvar-mart oylarida loyihaga kiritilgan 272 ta sanoat korxonalarini tomonidan 1 769,5 mlrd so‘mlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilib, 39,1 mlrd AQSH dollari miqdorida mahsulotlar eksport qilindi va 1 268 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni
mahalliyashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari**

	2025- yil yanvar-mart	2024- yil yanvar-mart
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	272	434
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	75	993
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd so‘m</i>	1 769,5	1 668,2
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSH doll.</i>	39,1	35,5
Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, <i>birlik</i>	1 268	1 011

2025-yil yanvar-mart oylarida jami sanoat ishlab chiqarish hajmida mahalliy ahamiyatga ega korxonalar va davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari ulushi
(jami sanoat ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, %da)



Xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun qulayroq iqtisodiy sharoitlarni yaratish bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan ishlar, mahalliy ahamiyatga ega korxonalar (davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalarsiz) rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatib, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 17 659,6 mlrd so'mni va jami sanoatdagi ulushi 57,7 % ni tashkil etdi (2024- yil yanvar-mart oylarida mos ravishda 15 459,3 mlrd so'm va 39,2 % bo'lgan).